



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 3 (5)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**Farg‘ona davlat universiteti uchun  
MAXSUS SON**

**3**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

**MUNDARIJA**

<b>Abduvoxidov A.A.</b> Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
<b>Olimova N.X.</b> Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
<b>Эргашев А.Х.</b> Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
<b>Yulchiyev A.O.</b> Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
<b>Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A.</b> Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
<b>Karimov Sh.X.</b> Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
<b>O‘rinboyev D.B.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
<b>Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R.</b> Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
<b>Israilova M.V.</b> Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
<b>Turg‘unov M.M.</b> Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
<b>Raximova K.N.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
<b>Mannopova M.S.</b> Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
<b>Nematova Sh.E.</b> Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
<b>Rasulov U.A.</b> Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
<b>Raximov D.Sh.</b> Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
<b>Teshabayeva O.N.</b> Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
<b>Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K.</b> O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
<b>Jaksimova Z.R.</b> Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
<b>Yunusov A.R.</b> "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
<b>Юнусов Ш.</b> Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
<b>Xalmatjanova G.D.</b> Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
<b>Xomidov Q.Q.</b> O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
<b>Jo‘rayev H.Q.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari .....	114
<b>Xakimov D.R.</b> Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
<b>To‘xtasinova D.</b> Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
<b>Xolmatov B.A.</b> Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
<b>Jumakulov Z.I., Baxromov B.</b> O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
<b>To‘ychiyeva B.V.</b> Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
<b>Abdisamatov Sh.A.</b> Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
<b>Asraqulov A.S.</b> Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
<b>Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda</b> Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
<b>Muxtorov A.A., Mirzayev A.T.</b> Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
<b>Usibjonova G.U., Mannopova M.S.</b> Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

<b>Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N.</b> O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	<b>166</b>
<b>Ximmatova G.K., To‘xtasinova D.</b> Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	<b>170</b>
<b>Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T.</b> Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	<b>174</b>
<b>Xasanova R., Teshabayeva O.N.</b> Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	<b>180</b>
<b>Zufarova G.A.</b> Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	<b>184</b>
<b>Ergashev J.S.</b> "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish .....	<b>187</b>
<b>O‘rinov A.A.</b> Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	<b>192</b>
<b>Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A.</b> Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	<b>197</b>
<b>Саиджоновна З.Б.</b> Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	<b>201</b>
<b>Qodirov Z.E.</b> Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	<b>205</b>
<b>Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A.</b> Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	<b>210</b>
<b>Хайдаров Х.</b> Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	<b>214</b>
<b>Махамადийев М.М.</b> Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	<b>217</b>
<b>Madaminov G‘.M.</b> Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	<b>222</b>
<b>Nazirboyev D.D.</b> Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	<b>227</b>
<b>Хасанова С.И.</b> Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	<b>232</b>
<b>Teshaboyev B.A.</b> Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	<b>237</b>
<b>Mustafoyeva Z.A.</b> Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	<b>242</b>
<b>Xolmirzayev U.A., Muradova N.R.</b> Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	<b>245</b>
<b>Sadullayev R.P.</b> Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	<b>249</b>
<b>Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н.</b> Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	<b>258</b>
<b>Tursunov O.B.</b> Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	<b>269</b>
<b>Sayitbayev Sh.D.</b> Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	<b>274</b>
<b>Ibodulloyeva Z.S.</b> Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	<b>278</b>
<b>Salimova Z.S.</b> Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	<b>282</b>
<b>G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K.</b> Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	<b>286</b>
<b>Абдуллоев А.Ж.</b> Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	<b>289</b>
<b>Rahimova M.I.</b> O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	<b>294</b>
<b>Rahmatullayeva D.O.</b> Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	<b>299</b>
<b>Valikulov Sh.Z.</b> “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	<b>305</b>
<b>Турабекова Г.И.</b> Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	<b>312</b>
<b>Tajiboyev S.O.</b> Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	<b>316</b>
<b>Madaminov A.M.</b> Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	<b>319</b>

MILLIY IQTISODIYOTDA OZIQ-OVQAT SANOATI RIVOJLANISHINING TARMOQ  
XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ ОТРАСЛЕВОГО РАЗВИТИЯ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В  
НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ

SECTORAL CHARACTERISTICS OF FOOD INDUSTRY DEVELOPMENT IN THE  
NATIONAL ECONOMY

Turg‘unov Muxriddin Mo‘ydinjon o‘g‘li  
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti (DSc)

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada milliy iqtisodiyot tarkibida oziq-ovqat sanoatining tutgan o‘rni, uning tarmoq sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlari hamda rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Oziq-ovqat sanoatining boshqa sanoat tarmoqlari bilan o‘zaro bog‘liqligi, xomashyo bazasiga qaramligi, ichki va tashqi bozor omillari ta’siri hamda qo‘shilgan qiymat yaratish jarayonidagi ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, tarmoq rivojlanishiga ta’sir etuvchi institutsional, investitsion va innovatsion omillar baholanib, uning barqaror rivojlanishini ta’minlash yo‘nalishlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari oziq-ovqat sanoatini strategik boshqarish va uning milliy iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** oziq-ovqat sanoati, boshqaruv, strategik boshqarish, boshqarish mexanizmi, boshqaruv strukturasi, inson omili.

В данной статье проанализированы роль пищевой промышленности в структуре национальной экономики, её отраслевые особенности и тенденции развития. Научно обоснованы взаимосвязи пищевой промышленности с другими отраслями экономики, её зависимость от сырьевой базы, влияние внутренних и внешних рыночных факторов, а также значение в процессе создания добавленной стоимости. Кроме того, дана оценка институциональным, инвестиционным и инновационным факторам, оказывающим воздействие на развитие отрасли, и обоснованы направления обеспечения её устойчивого развития. Результаты исследования направлены на разработку предложений и рекомендаций по стратегическому управлению пищевой промышленностью и повышению её конкурентоспособности в национальной экономике.

**Ключевые слова:** пищевая промышленность, менеджмент, стратегический менеджмент, механизм управления, структура управления, человеческий фактор, разделение труда.

This article analyzes the role of the food industry in the national economy, its sectoral characteristics, and development trends. It provides a scientifically substantiated explanation of the food industry's relationships with other economic sectors, its dependence on raw materials, the influence of internal and external market factors, and its role in creating added value. Furthermore, it assesses the institutional, investment, and innovation factors influencing the industry's development and substantiates strategies for ensuring its sustainable development. The study's results are aimed at developing proposals and recommendations for the strategic management of the food industry and enhancing its competitiveness in the national economy.

**Keywords:** food industry, management, strategic management, governance mechanism, governance structure, human factors, division of labor.

Milliy iqtisodiyot tarkibida oziq-ovqat sanoati strategik ahamiyatga ega tarmoqlardan biri hisoblanadi. Mazkur tarmoq aholi oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, ichki bozor barqarorligini saqlash hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi qishloq xo‘jaligi, logistika, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshadi. Shu bois, uning tarmoq xususiyatlarini chuqur o‘rganish va iqtisodiy tizimdagi o‘rnini aniqlash dolzarb ilmiy masalalardan biridir. Tarmoqning xomashyo bazasiga bog‘liqligi, mavsumiylik omili hamda qo‘shilgan qiymat zanjiridagi o‘rni uning rivojlanish mexanizmlarini o‘ziga xos shakllantiradi. Zamonaviy sharoitda innovatsion texnologiyalarni joriy etish va samarali boshqaruv mexanizmlarini qo‘llash tarmoq raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda oziq-ovqat sanoati faoliyatini rivojlanishi va uni boshqarish yo‘nalishida ilmiy tadqiqotlar jadal xolatda olib borilmoqda. Amalga oshirilayotgan tadqiqot doirasida oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini strategik boshqarish bo‘yicha mahalliy olimlarimizdan N.M.Ziyavitdinovanning tadqiqotlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarida bozor strategiyasini shakllantirishda, ularni rivojlantirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish va tarmoq boshqaruvining tashkiliy tuzilishi takomillashtirilgan [1].

Xorijiy tadqiqotchi olimlardan Шаталова А.Н., Ангелина И.А., Салита С.В., Архипов В.М., Афанасьев В.Г. va Баранчев В va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan oziq-ovqat sanoati faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga hamda soha faoliyatini vertikal va gorizontal klasterli yondashuv asosida rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan [2].

Sanoat tarmoqlarini kompleks rivojlantirish jarayonida ularning o‘ziga xos xususiyatlarini, milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan strategiya va dasturlar bilan uyg‘unligi muhim omil sifatida e‘tiborga olinadi. Y.Polojensova, N.Klevsova hozirgi vaqtda sanoat rivojlanishining o‘zgarishi sharoitida rivojlangan mamlakatlar sanoat ishlab chiqarish texnologiyalari kengayib boradigan holatga o‘tdilar va korxonalarda nafaqat texnologiyalarni, balki ushbu texnologiyalarni yangi rejimda ishlashga imkon beradigan boshqaruv tizimini ham joriy etdilar. “Shu asosda boshqa davlatlarda ham shu kabi tajribani qo‘llash kelajakda sanoat rivojlanishiga katta turtki bo‘lishini ta’kidlaganlar” [3].

E.Vetrova va L.Lapochkina esa tadqiqotlarida sanoat rivojlanishining zamonaviy nazariyasi asosiy qoidalari davlat darajasida strategik qarorlar qabul qilishda ham hisobga olinishi yaxshi samara berishiga e‘tibor qaratilgan. Sanoatni rivojlantirishning tobora kuchayib borayotgan muammolari nazariya va uning amalga oshirilishida ba’zi qarama-qarshiliklar mavjudligini ko‘rsatmoqda. “Shuningdek, sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni nazariy va amaliy jihatdan baholash va ularni muvofiqlashtirish yo‘nalishlarini aniqlash zarurligini ta’kidlaganlar”.

Bizningcha, yuqoridagi tadqiqot natijalariga asoslanib, fikrlarni umumlashtirgan holda, sanoat bu insoniyatni barcha ehtiyojlarini qondirish va aholini turmush darajasini yaxshilash uchun xizmat qiladigan bir nechta tarmoq jamlanmasidir.

Hozirgi paytda barcha mamlakatimizdagi sanoat tarmoqlari 18 kompleks tarmoqni o‘z ichiga oladi: Ushbu tarmoqlar o‘z navbatida kompleks tarmoq tarkibiga kiruvchi kichik tarmoqlarni qamrab oladi. Kompleks tarmoqlarning umumiy tarkibi va ularga tegishli kichik tarmoqlar soni 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval**

**“O‘zbekiston sanoatining kompleks tarmoqlari” [1]**

<b>№</b>	<b>Kompleks tarmoqlari</b>	<b>Kompleks tarmoqqa kiruvchi tarmoqlar soni</b>
1	Elektroenergetika sanoati	3
2	Ko‘mir sanoati	2
3	Gaz sanoati	2
4	Neft va neftni qayta ishlash sanoati	2
5	Qora metallurgiya sanoati	2
6	Rangli metallurgiya sanoati	4
7	Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	40

8	Kimyo va neft-kimyo sanoati	12
9	O‘rmonchilik, yog‘ochni qayta ishlash va qog‘oz sanoati	3
10	Qurilish materiallari sanoati	14
11	Oyna va chinni-fayans sanoati	2
12	Mikrobiologiya sanoati	12
13	Farmakevtika sanoati	3
14	Poligrafiya sanoati	1
15	Yengil sanoat	18
16	Oziq-ovqat sanoati	22
17	Un, yorma va yem sanoati	3
18	Qolgan tarmoqlar	21

Sanoatning kompleks tarmog‘i mamlakat iqtisodiyotiga turlicha yo‘nalishlarda ta’sir o‘tkazadi:

- infratuzilmalarni shakllanishi;
- iqtisodiy xavfsizlik;
- texnologik yangilanish;
- iqtisodiy rivojlanish;
- bandlik.

Yuqorida keltirilgan sanoatning mamlakat iqtisodiyotiga ta’sir doirasida mamlakatdagi sanoat tarmoqlarining umumiy infratuzilmasini rivojlanishi, sanoat mahsulotlari importiga qaramlikni oldini olish hamda texnik va texnologik jihatdan rivojlanishni amalga oshirish mumkin [7.8].

Iqtisodiyotda sanoatning rivojlanishi mamlakatdagi qonun va qonunosti hujjatlarining mavjudligiga ham bog‘liq hisoblanadi. Sanoatning rivojlanib ravnaq topishida qabul qilinayotgan qonunlar katta ahamiyatga ega. Qonun hujjatlari sanoatning barcha sohalarini tartibga solib, ularning barqaror va samarali faoliyatini ta’minlaydi. Mamlakatda sanoat tarmog‘ining rivojlanish jarayonida amal qilayotgan soliq qonunchiligi, mehnatga oid huquqiy normalar va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha belgilangan talablar muhim ahamiyat kasb etadi.

Fikrimizcha, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan qonun hujjatlari va ularning amaliy natijalari O‘zbekiston sanoatining jadal rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu qonuniy hujjatlar mamlakatning sanoat salohiyatini oshirish va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga zamin bo‘lmoqda.

Iste’molchilarning eng zarur ehtiyojlarini qondirish oziq-ovqat sanoati mahsulotlari orqali amalga oshadi. Natija samarasi o‘laroq mamlakat aholisining hayot tarzi yaxshilanadi. “Jahon mamlakatlaridagi hozirgi vaziyat, bir tomondan, uchinchi dunyo mamlakatlarida juda ko‘p sonli och odamlarning mavjudligi bilan, boshqa tomondan, rivojlangan mamlakatlarda ortiqcha oziq-ovqat ishlab chiqarish va uning iste’molidagi isrofgarchilik bilan xarakterlanadi” [2].

Oziq-ovqat sanoati faoliyatini quyida keltirilgan 4 ta asosiy omillarni e’tiborga olgan holda yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi:

1. Aholi soni ko‘p bo‘lgan hududlarda oziq-ovqat sanoati korxonalarini joylashtirish maqsadga muvofiq sanaladi, chunki bu hududlarda xaridorgirlik darajasi nisbatan yuqoriroq bo‘ladi. Ayniqsa, tezda yaroqsiz holga keladigan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi subyektlar uchun bu omil muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Oziq-ovqat sanoati subyektlarini joylashtirishda logistika bilan bog‘liq xarajatlar muhim omil sifatida qaraladi. Masalan, konservalangan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini dengiz mahsulotlari manbalariga yaqin hududlarda tashkil etish orqali transport xarajatlarini kamaytirish mumkin.

3. Oziq-ovqat sanoati korxonalari boshqa sanoat korxonalariga nisbatan ko‘proq ishchi kuchini talab etadi. Shu bois, bu kabi ishlab chiqarish obyektlarini mehnat resurslari ko‘p bo‘lgan va aholi zich yashaydigan yirik hududlarda joylashtirish afzal hisoblanadi.

4. Turli xil assortimentdagi ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarini tabiiy suv zaxiralari mo‘l hududlarda joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirishda bu soha bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa tarmoqlarning texnologik va

## “YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 3-son 2026 yil

tashkiliy xususiyatlarini ham hisobga olish muhim. Ushbu sanoatning ayrim yo‘nalishlari mamlakat bo‘ylab barcha iqtisodiy hududlarda joylashtirilishi lozim bo‘lsa, ba’zi tarmoqlar esa faqat muayyan hududlarda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bundan korxonalar qatoriga qandolat, un va un mahsulotlari va makaron mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar kiradi.

Oziq-ovqatni belgilangan me‘yorlar asosida iste‘mol qilish zarurligi. Kelajakda import mahsulotlariga qaram bo‘lib qolishlikni oldini olish uchun oziq-ovqat mahsulotlarini belgilangan me‘yorlar asosida ishlab chiqarish zarur. Hozirgi kunda oziq-ovqat isrofgarchiligi va noto‘g‘ri oziqlanish global muammoga aylanib bormoqda. Boshqaruv me‘yorlari va sog‘lom oziqlanish tartiblarini joriy etish orqali resurslarni tejash va sog‘lom hayot tarzini ta‘minlash mumkin.

Kelajakda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning muhim jihatlaridan biri qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirish va yangi texnologiyalarni joriy qilishdir. Bu, ayniqsa, intensiv qishloq xo‘jaligi texnologiyalari yordamida ko‘proq mahsulot olish va ekologik zararlarni kamaytirishni o‘z ichiga oladi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash aholining o‘sishi, resurslarning cheklanganligi va iqlim o‘zgarishlari sharoitida global ustuvor yo‘nalish bo‘lib qoladi. Bu esa jaxon bozoridagi oziq-ovqat mahsulotlariga bog‘lanib qolishni oldini olishga yordam beradi. Shu bilan birga, davlat siyosati va global hamkorlik oziq-ovqat yetkazib berish iqtisodiy zanjir barqarorligini saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda mamlakat aholi soni va ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari hajmi o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarur hisoblanadi (2-jadval).

Tahlil natijalarining ko‘rsatishicha, mamlakatimizda 2010-2024-yillarda aholi jon boshiga yillik o‘rtacha to‘g‘ri keluvchi oziq-ovqat mahsulotlari hajmi o‘sish tendensiyasini saqlab qolgan. Xususan, 2010-yilda aholi jon boshiga yillik o‘rtacha to‘g‘ri keluvchi oziq-ovqat mahsulotlari hajmi 187,0 ming so‘m miqdorni tashkil qilgani holda, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 2 736, 4 ming so‘mga yetgan. Lekin 2017- va 2018-yillarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi aholi sonining o‘sish sur‘atidan sezilarli darajada past bo‘lgan.

2-jadval

**O‘zbekiston Respublikasida 2010-2024-yillarda aholi jon boshiga yillik o‘rtacha to‘g‘ri keluvchi oziq-ovqat mahsulotlari hajmi [3]**

№	Yillar	Aholi soni (ming kishi)	Oziq-ovqat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so‘m)	Aholi jon boshiga yillik o‘rtacha to‘g‘ri keluvchi oziq-ovqat mahsulotlari hajmi(ming so‘m)	Aholi jon boshiga yillik o‘rtacha to‘g‘ri keluvchi oziq-ovqat mahsulotlari hajmining nisbiy o‘zgarishi (foizda)
1	2010	28 001,4	5 236,0	187,0	-
2	2011	29 123,4	7 501,6	257,6	37,8
3	2012	29 555,4	8 610,6	291,3	13,1
4	2013	29 993,5	11 373,7	379,2	30,2
5	2014	30 492,8	14 387,2	471,8	24,4
6	2015	31 022,5	18 511,6	596,7	26,5
7	2016	31 575,3	22 405,5	709,6	18,9
8	2017	32 120,5	23 217,7	722,8	1,9
9	2018	32 656,7	25 256,0	773,4	7,0
10	2019	33 255,5	35 337,3	1 062,6	37,4
11	2020	33 905,2	42 314,9	1 248,0	17,5
12	2021	34 558,9	48 643,3	1 407,5	12,8
13	2022	35 271,3	57 547,3	1 631,6	15,9
14	2023	36 024,9	65 174,7	1 809,2	10,9
15	2024	37 543,2	102 732,6	2 736, 4	51,2

Milliy iqtisodiyot tarkibida oziq-ovqat sanoati agrar sektor bilan uzviy bog‘langan, yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan hamda aholi farovonligini ta‘minlashda strategik rol o‘ynaydigan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ushbu tarmoqning nazariy asoslari sanoat iqtisodiyoti, agrar iqtisodiyot va institutsional iqtisodiyot konsepsiyalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning rivojlanish xususiyatlari ishlab chiqarish jarayonining biologik omillarga tayanishi, xomashyo bazasining mavsumiyligi hamda iste‘mol bozorining doimiy talabiga asoslanadi.

Oziq-ovqat sanoati milliy iqtisodiyotda qo‘shilgan qiymat yaratish zanjirining muhim bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘ladi. U qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash orqali ularning iste‘mol qiymatini oshiradi, saqlash muddatini uzaytiradi va logistika xarajatlarini optimallashtiradi. Shu jihatdan, oziq-ovqat sanoati agrar ishlab chiqarish bilan sanoat ishlab chiqarishi o‘rtasida integratsion ko‘prik vazifasini bajaradi. Nazariy jihatdan bu jarayon vertikal integratsiya va klasterlashuv konsepsiyalari orqali izohlanadi, bunda xomashyo yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va realizatsiya jarayonlari yagona tizim doirasida boshqariladi.

Tarmoqning muhim xususiyatlaridan biri – ishlab chiqarishning ijtimoiy yo‘naltirilganligidir. Oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab nisbatan elastik bo‘lmaganligi sababli, ushbu tarmoq iqtisodiy inqiroz sharoitida ham barqaror faoliyat ko‘rsatish salohiyatiga ega. Shu bilan birga, narxlarning o‘zgarishi aholining real daromadlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Demak, oziq-ovqat sanoati makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda ham muhim omil sifatida qaraladi.

Nazariy yondashuvlarda oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi innovatsion omillar bilan ham izohlanadi. Texnologik modernizatsiya, raqamli boshqaruv tizimlari, sifat menejmenti standartlarini joriy etish (masalan, HACCP tamoyillari) mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayonlar sanoatni yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltiradi hamda eksport salohiyatini kengaytiradi.

Bundan tashqari, oziq-ovqat sanoatining rivojlanishida institutsional muhit muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiyalar, investitsion dasturlar hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan strategiyalar tarmoq barqarorligini mustahkamlaydi. Oziq-ovqat xavfsizligi konsepsiyasi nazariy jihatdan mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi va milliy xavfsizligi bilan bog‘lanadi, chunki ichki bozorni sifatli va yetarli miqdordagi mahsulot bilan ta‘minlash ijtimoiy barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi.

Yuqoridagilardan quyidagicha xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda mustaqillik yillaridan keyingi bosqichda sanoatning rivojlanib borishi hamda mamlakat yalpi ichki mahsulotida uning ulushini orttirib borishi iqtisodiyotning ravnaq topib borayotganini ko‘rsatib beradi. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari importini umumiy import mahsulotlari tarkibida qisqarib borishi ham iqtisodiy, ham oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash borasidagi qilinayotgan ishlarining natijasi sifatida qaraladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining sanoat ishlab chiqarishidagi hissasini bosqichma-bosqich oshirish nafaqat aholining sifatli mahsulotlarga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi, balki yashash darajasi va turmush sifati yaxshilanishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari jaxon bozoriga oziq-ovqat mahsulotlari eksportini xam oshirib borish uchun mavjud resurslardan maksimal darajada foydalanish hisobiga erishilishi mumkin bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Buning uchun mamlakatimizda oziq-ovqat sanoati va uning rivojiga hissa qo‘shadigan qonunchilik bazasi yetarlicha shakllangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ziyavitdinova N.M. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini iqtisodiy samaradorligini oshirish. Diss. i.f.n. Bux oz.ov YeSTI 155 b. B. – 2006.
2. Шаталова А.Н. Особенности формирования стратегии устойчивого развития предприятий пищевой промышленности // Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент № 2, 2020.
3. Ангелина И.А., Салита С.В. Оценка конкурентоспособности предприятий пищевой промышленности: методический аспект. Вестник института экономических исследований 2018, № 4(12). 34-41 стр.

4. Umarov I.Yu. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (Andijon viloyati misolida). Diss. i.f.n. AMI 149 b. A. – 2009. Полухин А.А. Организационно-экономический механизм модернизации сельского хозяйства России/ А.А. Полухин// Аграрная Россия. – 2012 - №5 с. 23-29.
5. Архипов В.М. Стратегический менеджмент. Учебное пособие. - СПб: Изд-во СПб гос. ин-та экономики и финансов, 1998. - 161 с.
6. Афанасьев В.Г. Общество: системность, познание и управление. - М.: Политиздат, 1981. - 432 с.

**UDK:330.342**

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA  
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

**ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И  
КОММУНИКАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ**

**ISSUES OF DEVELOPING INFORMATION TECHNOLOGIES AND  
COMMUNICATIONS IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY**

**Raximova Kizlarxon Ne’matjon qizi**

Farg‘ona davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti iqtisodiyot  
Iqtisodiyot va turizm kafedrasida o‘qituvchisi, Iqtisodiyot fanlar falsafa doktori

**Annotatsiya**

Ushbu maqola hozirgi rivojlangan davlatlarda faol muomalada bo‘lgan raqamli iqtisodiyot haqida yozilgan bo‘lib, unda raqamli iqtisodiyot nima ekanligi, unday foydalanish yo‘riqnomalari va tartibi haqida yozilgan.

**Kalit so‘zlar:** raqamli iqtisodiyot, kompyuter, AKT, internet, investitsiya.

В данной статье рассматривается цифровая экономика, которая активно используется в развитых странах мира. В ней раскрывается сущность цифровой экономики, а также описываются принципы, методы и порядок ее применения.

**Ключевые слова:** цифровая экономика, компьютер, ИКТ, интернет, инвестиции.

This article discusses the digital economy, which is widely used in developed countries today. It explains the essence of the digital economy and describes the principles, methods, and procedures of its application.

**Keywords:** digital economy, computer, ICT, internet, investment.

Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot va u bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha samarador texnologiyalar, shu jumladan, elektron tijorat va elektron biznes hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Xuddi shuning uchun ham, davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida, respublikamiz rahbariyati bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi prezidenti 2020 yil 25 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham mamlakatimizda raqamli iqtisodning rivojlanishi bo‘yicha quyidagilarni aytib o‘tdi: “Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish maqsadida men yurtimizda 2020 yilga “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”, deb nom berishni taklif etaman”.